

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-1

XUSUSIY MULK DAXLSIZLIGINI KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ISLOHOTLAR KAFOLATLAYDI

O‘R JXU “Fuqaroviy-huquqiy fanlar” kafedrası professorı
Rustam Djabbarovich Ruziyev

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston sari rivojlanish yo‘lida sharoitida mulk huquqi va xususiy mulk daxlsizligini konstitutsiyaviy huquqiy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: mulk huquqi, xususiy mulk daxlsizligi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, huquqiy kafolat, konstitutsiyaviy huquqiy islohotlar, mulk shakllari.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ ГАРАНТИРУЮТ НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Профессор кафедры «Гражданско-правовых наук» УОБ РУз, доктор юридических наук
Рустам Джаббарович Рузиев

Аннотация: В статье освещены конституционно-правовые основы права собственности и неприкосновенности частной собственности в пути развития к Новому Узбекистану.

Ключевые слова: право собственности, неприкосновенность частной собственности, Конституция новой редакции, правовая гарантия, конституционно-правовые реформы, формы собственности.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL REFORMS GUARANTEE THE INTEGRITY OF PRIVATE PROPERTY

Professor of the Department of “Civil Legal Sciences” of the UPS of the RUz, **Rustam Djabbarovich Ruziev**

Abstract: The article highlights the constitutional and legal foundations of property rights and the inviolability of private property on the way to a new Uzbekistan

Key words: property rights, inviolability of private property, new edition of the constitution, legal guarantee, constitutional legal reforms, forms of ownership

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”[1] doirasida ortga qaytmas tus olgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, samarali bozor mexanizmlariga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar salmog‘ini alohida qayd etish adolatdan bo‘ladi. Vaholanki, yangi O‘zbekistonning xalqchil siyosati – “inson-jamiyat-davlat” zahirida shakllantirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma‘rifiy va ma‘naviy-mafkuraviy taraqqiyot yo‘lining yorqin istiqbollarini ochib berish yangi jamiyatga mos ruhdagi huquqiy tizimni yaratishni taqozo etadi.

Shubhasiz, yangilanishlarning huquqiy kafolati sifatida, avvalambor, yuksak insonparvarlik g‘oyalarini o‘ziga singdirgan yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zero, yangi Konstitutsiya iqtisodiyotimizning manbai sifatida mulk va uning huquqiy asoslari, jamiyat va fuqarolar farovonligini ta‘minlash, mamlakatimiz taraqqiyoti va iqtisodiy hayotida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishdek ulug‘ maqsadga xizmat qiladi. Shu ma‘noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq

muddatli strategiyalari, umuman, vatanimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozimligi"[2] xususidagi purma'no so'zlarini eslash joiz.

Iqtisodiyotning samarali amal qilishi va xalq farovonligi o'sishiga imkoniyat yaratuvchi muhim omil bo'lgan mulkning milliy qonunchiligimizda turli shakllariga ruxsat berilganligini e'tirof etish lozim. Buning tasdig'ini yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasida "Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi" haqidagi qoida belgilab qo'yilganligida ko'rish mumkin.

E'tiborli jihati, davlat mulkning xilma-xil shakllari zamirida bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlash orqali fuqarolar farovonligini oshirishni maqsad qilib qo'yganligidir.

Jamiyatning iqtisodiy negizi undagi mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanganligi nuqtai-nazaridan mulk iqtisodiy ma'noga ega. Qaysiki, kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga berilgan boyliklar har doim mulk bo'lib kelgan. Mulq, birinchidan, kishining ash-yoga nisbatan egalik his-tuyg'usi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ushbu ash-yo xususida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabat hamdir. O'z navbatida, mulkiy munosabatlar qonunlar bilan tartibga solinadi va ularning ta'siri ostida mulkiy huquqiy munosabatlar sifatida namoyon bo'ladi. Huquqiy jihatdan qaraganda, moddiy va nomoddiy ko'rinishdagi ne'matlardan iborat bo'lgan mulkning muayyan subyektlarga tegishlilikini mustahkamlovchi va uning yuridik holatini belgilovchi huquqiy me'yorlar yig'indisini ifoda etadi.

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi 12-bobining (65-68-moddalari) qoidalari taalluqli qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibga muvofiq mol-mulkning miqdorini chegaralamaydi. Demoqchimizki, ushbu normalar halol raqobat sharoitida iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini ta'minlagan holda qonuniy tadbirkorlik va mehnat qilish natijasida orttirilgan mol-mulkning hajmi, soni, miqdori cheklanmasligini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida yuridik ma'nodagi mulkning xususiy va ommaviy shakllari mavjud bo'lib, o'z navbatida, xususiy mulk yakka shaxsga tegishli mulk (fuqarolar mulki) va nodavlat yuridik shaxslar mulki ko'rinishiga bo'linadi. Ommaviy mulk tarkibiga esa O'zbekiston Respublikasi mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk) kiradi. Mulq shakllarining bunday turkumlanishida mulk subyekti maqomi va mol-mulq rejimining uzviy birligi asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasi mulkning boshqa shakl va ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkinligini e'tirof etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasida mulkning an'anaviy ikki shaklidan tashqari jamoa mulki, aralash mulk, boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki kabi ko'rinishlarda bo'lishi ham ko'zda tutilgan. Har qanday hollarda ham davlat mulkning xilma-xil shakllarini rivojlantirish uchun ularning qonuniy tengligini ta'minlaydi va himoyasini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosini tashkil etuvchi mulq shakllari qatorida xususiy mulq qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritilgan har qanday narsalar bo'lishi mumkin. Aniqroq aytganda, xususiy mulq huquqining konstitutsiyaviy mazmun-mohiyati shaxsning qonunga muvofiq miqdori va qiymati cheklanmagan tarzda qo'lga kiritgan mulkka erkin, halol va qonunga zid bo'lmagan holda egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqlaridan iborat. Fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat

fondlari va davlatga qarashli bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadi. Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ommaviy mulk respublika va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo'lib, respublika mulkiga – yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika budjetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valuta fondi va boshqa fondlari kiradi. Shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular budjet yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa va boshqa ayrim mol-mulklar ham respublika mulki bo'lishi mumkin.

Respublika mulki – respublika budjetiga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra boshqa tushumlar hisobidan tashkil etilib, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartib va shartlar asosida xususiy mulk qilib berilishi mumkin. Respublika mulki bo'lgan mol-mulknii O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tasarruf qilish huquqiga egadirlar.

Munitsipal mulk esa – davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy budjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mol-mulklardan iborat bo'ladi. Ushbu mulk turi mahalliy budjetga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq, boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi. Munitsipal mulk bo'lgan mol-mulknii, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar. O'z navbatida, munitsipal mulk obyektlari ham xususiy mulk qilib berilishi mumkin.

Davlat jamiyatimizning iqtisodiy negizini tashkil etishda mulk shakllarining erkin sharoitini va mulkdorlar huquqlarini ta'minlash maqsadida iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlarini belgilab beradi. Bu jihatlar:

birinchidan, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi;

ikkinchidan, iste'molchilar huquqlari ustuvorligi;

uchinchidan, halol raqobat muhiti yaratilganligi;

to'rtinchidan, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi;

beshinchidan, mulk shakllarining huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilganligida o'z ifodasini topadi.

Ayni vaqtda, davlat yangi Konstitutsiya, qonunlar va ularning ijrosini ta'minlovchi mexanizmlar yordamida xilma-xil shakldagi mulk egalari va tadbirkorlik subyektlarining o'z faoliyatlarini amalga oshirishlarida, avvalambor, iste'molchilar huquqlari ustunligi, ularning talab va takliflari iqtisodiy faoliyatni harakatga keltiruvchi, tartibga solib turuvchi jarayon ekanligini hisobga olib shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining[3] 23-moddasida konstitutsiyaviy qoida asosida iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash mexanizmlari belgilangan. Unga ko'ra davlat Konstitutsiya

va qonun hujjatlari orqali iste'molchilarning tovar sotib olish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ulardan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoyasini kafolatlaydi va amalga oshiradi.

Iste'molchilar huquqlarining ustunligi ularning ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi, sotuvchidan farqli ravishda foyda olish maqsadini ko'zlamasligi, asosan, shaxsiy iste'mol yoki boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar sotib olishi, ish va xizmatga buyurtma berishida hamda ularning sifat va xavfsizligi kafolatlanganligini, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarini qo'yishda aks etadi.

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida xususiy mulkning barcha mulk shakllari qatorida teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya etilganligi uning 65-moddasi 3-qismida "Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkidan mahrum etilishi mumkin", deb belgilab qo'yilgan. Endilikda, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda sodir bo'layotgan yangilanishlar talqinida xususiy mulk nafaqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari, balki boshqa davlatlarning fuqarolari, yuridik shaxslari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ham boyligi hamda moddiy mustaqilligi, shuningdek ma'naviy erkinligi manbai sifatida baholandi va e'tirof etildi.

Yangi Konstitutsiyada, birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlari uyg'unligida iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimoti hamda investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhiti yaratilganligi, ikkinchidan, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi ta'minlanganligi, uchinchidan, tadbirkorlikda halol raqobat kafolatlanganligi va monopol faoliyatga yo'l qo'yilmasligi kabi tamoyillari asosida xususiy mulk daxlsizligi va himoyasining mustahkam huquqiy tizimi yaratildi.

Xususiy mulkka nisbatan belgilangan "daxlsizlik va davlat himoyasida bo'lishlik" xususiy mulk huquqini himoya qilish choralari orasida o'ziga xos o'ringa ega. Birinchi navbatda, "daxlsizlik" deganda, shaxsning o'ziga yoki muayyan huquqlariga nisbatan qonunga zid bo'lgan xatti-harakatlar bilan u yoki bu darajada ta'sir o'tkazishni taqiqlovchi qonuniy choralar majmui nazarda tutiladi. Ikkinchidan, "daxlsizlik" – huquq subyektiga tegishli va uning vakolatlari ostida hamda xo'jalik hukmronligidagi obyektning har qanday huquqbuzarliklardan holi bo'lishini qonun bilan ta'minlanganligini ham anglatadi. Konstitutsiyaning 65-moddasida belgilangan xususiy mulkning daxlsizligi ham, mulkdorga tegishli bo'lgan mol-mulkka nisbatan huquqlarning har qanday buzilishi va u bilan bog'liq manfaatlarga har qanday putur yetkazilishining taqiqlanishini hamda xususiy mulk huquqi u kimga tegishli bo'lishidan qat'i nazar faqatgina qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagi bekor qilinishi mumkinligi qoidasi ham xususiy mulk daxlsizligining mazmunini ifodalaydi.

Yangi Konstitutsiyaning mazkur normasini hayotga bevosita joriy etishning moddiy va protsessual mexanizmlari sifatida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik, fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual kodekslari tegishli qoidalari, mulk va mulkchilikka oid bir qator qonun hujjatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"[4]gi va boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida 2021 yil 14 iyulda qabul qilingan O'RQ-701 sonli "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-tamoyillari to'g'risida"[5]gi qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 avgustdagi PF-198-son "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'yilmaslik, xususiy

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**VOLUME-5, ISSUE-1**

mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6]gi Farmoni muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Barcha mulk shakllarining teng huquqliligi hamda mulk daxlsizligi tamoyili oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasi 2 va 3-qismlarida bu boradagi normalar mustahkamlab qo‘yilgan. Darhaqiqat, mazkur normalar asosiy maqsadi – mulk shakllarining tengligi, mulk daxlsizligini ta‘minlashdir. Garchi, yangi Konstitutsiyaning ayrim normalari maqsadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mulk huquqini himoya qilishga yoki mulk daxlsizligini ta‘minlashga qaratilmagan bo‘lsa-da, ularning amalga oshirilishi natijasida shaxsning mulk huquqlari to‘la-to‘kis ta‘minlanadi. Buning yaqqol misoli sifatida yangi Konstitutsiya 20-moddasining 2-3-qismlarini (“inson huquqlari va erkinliklarining amal qilishi”, “boshqa shaxslar huquq va erkinliklariga putur yetkazmaslikning shartligi”), 41-moddasi 1-qismini (“har bir shaxs mulkdor bo‘lish huquqiga egaligi”) va 47-moddasi 1-qismini (“har kim uy joyli bo‘lish huquqiga egaligi”) keltirib o‘tish o‘rinli. Zero, har uchta holatda ham mulk daxlsizligi elementlari ifoda etilgan. Demak, aytish mumkinki, yangi Konstitutsiyaning 65-68-moddalarigina emas, balki 20, 41, 47-moddalari normalarida ham mulk daxlsizligining mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o‘zlarini tiyishlari va saqlashlaridan iborat bo‘lib, mulk davlat himoyasidadir. Mulkdor o‘zining mulk huquqi kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzilishini bartaraf etishni, shuningdek buzilgan huquqlarini tiklashni talab qilish huquqiga ega. Mulq daxlsizligiga oid konstitutsiyaviy normalar joriy qonunchiligimizda, jumladan, fuqaroviy-huquqiy, ma‘muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy normalarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ushbu tamoyilning ijrosida amaliy ahamiyatga ega.

Mulkdor mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina, ya‘ni mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori yoki davlat hokimiyati organi qarori asosida mol-mulkni olib qo‘yish (sotib olish) yo‘li bilan (masalan, musodara, rekvizitsiya), shuningdek mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan (masalan, natsionalizatsiya) mahrum etilishi mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan qonunlar yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining iqtisodiy negizlarini belgilab beradi, davlat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asosini tashkil qiluvchi xilma-xil mulk shakllari, jumladan xususiy mulk daxlsizligini kafolatlaydi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони // «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси» www.lex.uz.
2. Ўзбекистон янгиликлари. Расмий сайт www.gazeta.uz/uz.
3. ЎР ҚММБ, 22.02.2024й., 03/24/9110142-сон.
4. ЎР ҚММБ, 30.06.2022й., 03/22/782/0576-сон.
5. ЎР ҚММБ, 25.05.2022й., 03/22/771/0448-сон.
6. ЎР ҚММБ, 25.08.2022й., 06/22/198/0770-сон.